

AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING TA'LIM SOHASIDAGI O'RNI

Toshboltayev Faxriddin O'rino boyevich

FarDU, Axborot texnologiyalari kafedrasiga katta o'qituvchisi (PhD)

Tojiboyeva Robiya Yunusjon qizi

FarDU, 24.110-guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada axborot texnologiyalarining ta'lism sohasidagi o'rni, xususan ingliz tili o'rganish jarayoniga ta'siri talaba nuqtayi nazaridan tahlil qilingan. Axborot texnologiyalari yordamida til ko'nikmalarini rivojlantirish usullari, yuzaga keladigan qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish yo'llari haqida shaxsiy kuzatishlar asosida fikr yuritilgan. Maqola texnologiyalardan foydalangan holda ta'lism samaradorligini oshirishning muhim tomonlariga urg'u beradi.

Kalit so'zlar: Axborot texnologiyalari, ta'lism, ingliz tili, o'rganish metodlari, raqamli ta'lism, til ko'nikmalarini, ta'limga qiyinchiliklar, texnologik metodlar.

Bugungi kunda axborot texnologiyalari (AT) ta'lism sohasining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Raqamli qurilmalar, onlayn platformalar va interaktiv dasturlar o'quv jarayonini yanada boyitdi va samaraliroq qildi. Axborot texnologiyalarining ta'limga roli haqida chuqurroq fikr yuritganda, avvalo, bu texnologiyalar imkoniyatlari bilan ta'lism oluvchining faol ishtirokini oshirishga qaratilganligini alohida ta'kidlagan bo'lardim.

Avvallari ta'lism jarayoni ko'proq o'qituvchi va darsliklarga tayanib olib borilgan bo'lsa, hozirgi raqamli davrda talabalar o'z bilimlarini mustaqil ravishda kengaytirish imkoniyatiga ega bo'lishdi. Masalan, onlayn darslar, vebinarlar va virtual laboratoriylar orqali istalgan fan bo'yicha chuqur bilim olish mumkin. Aynan shunday imkoniyatlar talabaning faolligini oshirib, uni passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradi.

Biroq, texnologiyaning ta'limga o'rni faqat ma'lumotni tez va oson yetkazib berishdan iborat emas. Mening fikrimcha, asosiy e'tibor talabani mustaqil fikrlash, tahlil qilish va amaliyotda bilimni qo'llashga o'rgatishdir. Chunki texnologiyalar orqali olingan ma'lumotlar o'z-o'zidan sifatli bilim bermaydi. Uni chuqur anglash va to'g'ri ishlatalish ko'nikmalarini ta'limga asosiy maqsadidir.

Shuningdek, axborot texnologiyalari talimda shaxsiylashtirish imkoniyatini ham yaratdi. Endi har bir talaba o‘z ehtiyojlari, qiziqishlari va bilim darajasiga mos ravishda o‘qish imkoniyatiga ega. Bu esa o‘quv jarayonini yanada samarali va o‘ziga xos qiladi. O‘z tajribamdan kelib chiqib aytishim mumkinki, ingliz tili o‘rganishda interaktiv platformalar, audio va video materiallar yordamida til ko‘nikmalarini rivojlantirish an'anaviy dars usullariga nisbatan ancha samaraliroq bo‘lmoqda.

Biroq, texnologiyalarning bunday keng qo‘llanilishi ba’zi xavf-xatarlarni ham tug‘diradi. Misol uchun, o‘quvchilar diqqatini chalg‘itadigan ko‘plab omillar mavjud: ijtimoiy tarmoqlar, o‘yinlar va keraksiz kontentlar. Shuning uchun texnologiyadan foydalanishda maqsadga muvofiqlik va tartib-intizom muhim ahamiyat kasb etadi. Agar o‘qituvchi va talaba o‘zaro hamkorlikda texnologiyalardan oqilona foydalansa, ta’lim sifati ancha yuqori natijalarga olib kelishi mumkin.

Yana bir muhim jihat shuki, axborot texnologiyalari orqali hamkorlik va jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkin. Masalan, onlayn loyiha ishlarida talabalarning birgalikda ishlashi, o‘zaro bilim almashishi va fikrlar almashushi orqali ko‘plab amaliy ko‘nikmalar shakllanadi. Bu esa nafaqat akademik, balki kasbiy hayot uchun ham katta tayyorgarlik vazifasini bajaradi.

Axborot texnologiyalari ta’lim jarayonining sifatini oshirishda, uni shaxsiylashtirishda va talabalarni mustaqil, faol o‘quvchilarga aylantirishda juda katta imkoniyatlar yaratmoqda. Biroq bu imkoniyatlardan to‘g‘ri va maqsadli foydalanish kerak. O‘ylaymanki, kelajak ta’limi aynan AT vositalari bilan uyg‘unlashgan holda yanada interaktiv, qiziqarli va samarali shakllanadi.

Axborot texnologiyalari yordamida ingliz tilini o‘rganish va o‘qitish bugungi ta’lim tizimining ajralmas qismiga aylangan. Ingliz tili filologiyasi yo‘nalishi talabasi sifatida o‘z tajribamga tayanib shuni aytishim mumkinki, AT vositalari yordamida ingliz tilining barcha to‘rtta asosiy ko‘nikmasi — tinglab tushunish, o‘qish, yozish va gapirish —ni samarali rivojlantirish mumkin.

Birinchidan, tinglab tushunish ko‘nikmasi uchun audio materiallar, podcastlar va videodarslardan foydalanish ayni muddao. Masalan, turli interaktiv ilovalar orqali ingliz

tilidagi suhbatalarni eshitib, ularni tushunishga o‘rganganman. Bu jarayonda nafaqat so‘z boyligi ortadi, balki talaffuzni ham tabiiy tarzda yaxshilash imkoniyati tug‘iladi.

Ikkinchidan, o‘qish ko‘nikmasini rivojlantirish uchun raqamli kitoblar, maqolalar va ingliz tilidagi veb-sahifalardan foydalanish o‘z samarasini beradi. O‘quv materiallari onlayn ravishda doimo yangilanib turadi, bu esa til o‘rganishni zamonaviy va aktual materiallar asosida olib borishga yordam beradi. O‘zim ham ingliz adabiyotidan qisqacha hikoyalarni onlayn o‘qib, har bir yangi so‘z va iborani alohida daftarimga yozib, ulardan gap tuzishga harakat qilaman.

Uchinchidan, yozish ko‘nikmasini oshirish uchun esa turli onlayn yozma mashqlar, insho yozish dasturlari va til o‘rganishga mo‘ljallangan platformalardan foydalanish katta yordam beradi. Shaxsiy tajribamda, har kuni kichik matnlar yozib, ularni grammatik va stilistik xatolar nuqtayi nazaridan tekshirib ko‘rish yaxshi natija bergen.

To‘rtinchidan, gapiresh ko‘nikmasini rivojlantirish uchun onlayn suhbat platformalari, virtual sinflar va til almashish dasturlaridan foydalanish mumkin. Men ham turli xalqaro onlayn forumlarda qatnashib, ingliz tilida muloqot qilishga harakat qilganman. Avvaliga xatoliklardan qo‘rqardim, lekin vaqt o‘tishi bilan ishonch paydo bo‘ldi va muloqot qobiliyatim sezilarli darajada rivojlandi.

Bularning barchasi shuni ko‘rsatadiki, axborot texnologiyalari yordamida ingliz tilini o‘rganish an'anaviy metodlarga qaraganda ko‘proq mustaqillik va shaxsiy rivojlanish imkonini beradi. Biroq, texnologiyalarni to‘g‘ri va maqsadga muvofiq tarzda ishlatish ham juda muhim. Agar faqatgina ko‘ngilochar kontentga berilib ketilsa, asosiy maqsad — til o‘rganish — unutilib qolishi mumkin.

Mening fikrimcha, o‘qituvchilar ham axborot texnologiyalaridan foydalanishni faqat material yetkazish vositasi sifatida emas, balki talabalarning o‘z ustida ishlash, tahlil qilish va mustaqil fikr yuritish ko‘nikmalarini shakllantirish uchun ham samarali foydalanishlari kerak. Axir til — bu faqat grammatik qoidalar to‘plami emas, balki tirik muloqot vositasi. Shuning uchun texnologiyalar til o‘rganishga tabiiy va ilhomlantiruvchi tarzda yondashishi zarur.

Axborot texnologiyalarining ta‘lim jarayoniga keng joriy etilishi, shubhasiz, ko‘plab imkoniyatlarni ochdi. Biroq, bu jarayon muammolardan ham xoli emas. Shaxsiy tajribam

asosida aytishim mumkinki, eng ko‘p uchraydigan qiyinchiliklardan biri – texnik vositalarga to‘liq ishonib qolish va tirik muloqotning kamayib ketishidir. Masalan, faqat onlayn mashg‘ulotlar bilan cheklanib qolsak, til o‘rganish jarayoni sun’iy va biryoqlama bo‘lib qolishi mumkin.

Bundan tashqari, ayrim hollarda internetga bog‘liqlik yoki texnik nosozliklar dars sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Buni bartaraf etish uchun har doim an’anaviy va texnologik metodlarni uyg‘unlashtirish zarur. Shuningdek, o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi bevosita aloqa saqlanib qolsa, AT vositalari faqat yordamchi rolni o‘ynaydi.

Xulosa qilib aytganda, axborot texnologiyalari — to‘g‘ri va maqsadli foydalanilganda — ta’lim samaradorligini oshiradigan kuchli vositadir. Ammo uni aql bilan va muvozanatli tarzda qo‘llash eng muhim shartdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Beatty, K. Teaching and Researching Computer-Assisted Language Learning. — 2nd ed. — London: Routledge, 2010. — 312 p.
2. Hubbard, P. Computer Assisted Language Learning: Critical Concepts in Linguistics. — London: Routledge, 2009. — 392 p.
3. To‘xtayev, B., Xasanov, E. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. — 256 b.
4. Rasulov, Z. Axborot texnologiyalarining ta’limdagi o‘rni va roli // Pedagogik ta’lim va innovatsiyalar. — 2021. — №4 (8). — B. 134–139.
5. Minamatov Y. E. O. G. L., Nasirdinova M. H. Q. Application of ICT in education and teaching technologies //Scientific progress. – 2022. – T. 3. – №. 4. – C. 738-740.
6. Jo‘rayev, A. Raqamli ta’lim muhitini shakllantirish va uning imkoniyatlari // Axborot texnologiyalari va ta’lim. — 2022. — №2. — B. 87–92.